

**TOSHKENT DAVLAT IQTISODIYOT UNIVERSITETI  
HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI  
DSc.03/10.12.2019.I.16.01 RAQAMLI ILMIY KENGASH  
SOLIQ QO'MITASI HUZURIDAGI FISKAL INSTITUTI**

**TURSUNBOYEV AMIRDIN YULDASHEVICH**

**YER OSTI BOYLIKLARINI HISOBGA OLİSH VA SOLIQQA  
TORTISHNI TAKOMILLASHTIRISH**

**08.00.07 – Moliya, pul muomalasi va kredit**

**Iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi  
AVTOREFERATI**

**Iqtisodiyot fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi avtoreferati  
mundarijasi**

**Оглавления автореферата диссертации доктора философии (PhD) по  
экономическим наукам**

**Content of dissertation abstract of doctor of philosophy (PhD) on  
Economical sciences**

**Tursunboyev Amirdin Yuldashevich**

Yer osti boyliklarini hisobga olish va soliqqa tortishni takomillashtirish..... 3

**Турсунбоев Амирдин Юлдашевич**

Совершенствование учета и налогообложения недр..... 23

**Tursunboyev Amirdin Yuldashevich**

Improvement of accounting and taxation of subsoil..... 45

**E’lon qilingan ishlar ro‘yxati**

Список опубликованных работ

List of published works..... 50

**TOSHKENT DAVLAT IQTISODIYOT UNIVERSITETI  
HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI  
DSc.03/10.12.2019.I.16.01 RAQAMLI ILMIY KENGASH  
SOLIQ QO'MITASI HUZURIDAGI FISKAL INSTITUTI**

**TURSUNBOYEV AMIRDIN YULDASHEVICH**

**YER OSTI BOYLIKLARINI HISOBGA OLİSH VA SOLIQQA  
TORTISHNI TAKOMILLASHTIRISH**

**08.00.07 – Moliya, pul muomalasi va kredit**

**Iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi  
AVTOREFERATI**

Falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi mavzusi Oliy attestatsiya komissiyasi tomonidan  
B2022.2.PhD/lqt2191 raqam bilan ro'yxatga olingan.

Dissertatsiya ishi Soliq qo'mitasi huzuridagi Fiskal institutda bajarilgan.

Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o'zbek, rus, ingliz (rezume)) Ilmiy kengash veb-sahifasi  
([www.tsue.uz](http://www.tsue.uz)) va "ZiyoNet" axborot-ta'lif portaliga ([www.ziyonet.uz](http://www.ziyonet.uz)) joylashtirilgan.

**Ilmiy rahbar:**

**Hotamov Komil Rabbimovich**  
iqtisodiyot fanlari doktori, professor

**Rasmiy opponentlar:**

**Tashmuradova Buvsara Egamovna**  
iqtisodiyot fanlari doktori, professor  
**Kurbanov Daniyar Rozumbayevich**  
iqtisodiyot fanlari doktori

**Yetakchi tashkilot:**

**O'zbekiston Respublikasi Bank-moliya akademiyasi**

Dissertatsiya himoyasi Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti huzuridagi ilmiy durajalar beruvchi  
DSc.03/10.12.2019.1.16.01 raqamli ilmiy kengashning 2024-yil "30" 05 soyat 14 dagi majlisida  
bo'lib o'tadi. Manzil: 100066, Toshkent shahri, Islom Karimov ko'chasi 49-uy. Tel.: (99871) 239-28-72,  
faks: (99871) 239-43-51, e-mail: [info@tsue.uz](mailto:info@tsue.uz).

Dissertatsiya bilan Toshkent davlat iqtisodiyot universitetining Axborot-resurs markazida tanishish  
mumkin (       raqami bilan ro'yxatga olingan). Manzil: 100066, Toshkent shahri, Islom Karimov ko'chasi  
49-uy. Tel.: (99871) 239-28-72, faks: (99871) 239-43-51,  
e-mail: [info@tsue.uz](mailto:info@tsue.uz).

Dissertatsiya avtoreferati 2024-yil "14" 05 kuni tarqatildi.  
(2024-yil "15" 05 dagi 34raqamli reestr bayonnomasi).



S.U. Mexmonov  
Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash  
raisi, i.f.d., professor

 U.V. Gafurov  
Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash  
kotibi, i.f.d., professor

 S.K. Xudoikulov  
Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash  
qoshidagi ilmiy seminar raisi, i.f.d.,  
professor

## **KIRISH (falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi annotatsiyasi)**

**Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati.** Global raqobatning kuchayib borishi sharoitida barcha mamlakatlar o‘z mintaqalaridagi foydali qazilmalar mavjud maydonlarni aniqlash, ulardagi zaxiralarni hisobga olish va qiymatini baholash hamda budget daromadlaridagi o‘rnini shakllantirishga yo‘naltirilgan fiskal siyosatini olib bormoqda. “Jahon amaliyotida neft sanoatida roylati o‘rtacha 0 dan 50% gacha tebranadi”<sup>1</sup>. Royalti nomi bilan yuritiluvchi tog‘-kon sanoati soliqlari Kanada, Xitoy, AQSH va Hindistonda keng tarqalgan bo‘lib, AQSHning turli shtatlarida qimmatbaho metallar uchun tabiiy resurslarni qazib olish uchun soliq va litsenziyalangan qazib olish solig‘i olinadi. Kanadada yer qa’ridan foydalanuvchining yalpi daromadining 2 foizi yoki sof foydasining 15 foizi miqdorida roylati to‘lash odatiy hol bo‘lib bormoqda. Yer osti boyliklarini o‘zlashtirishni salohiyatlari investorlarga taqdim etish orqali qo‘shilgan qiymat zanjirini yaratish maqsadida soliq stavkalarini auksion savdolari vositasida kim oshdi usulida belgilash amaliyotidan ham foydalanilmoqda.

Hozirgi globallashuv sharoitida rivojlangan davlatlarda yer osti boyliklarini soliqqa tortishda soliq bazasini aniqlashning yangi tartibini joriy qilish, soliq stavkasini pasaytirish orqali kam rentabelli konlarni ishlab chiqarish jarayoniga jalg etish, samarali soliq-budget siyosatini tashkil etish orqali iqtisodiy o‘sishni ta’minalash va investitsion jozibadorlikni oshirish masalalari tadqiqiga alohida e’tibor berilmoqda. Yer qa’ridan foydalanganlik uchun soliq bazasini aniqlash, zamonaviy yondashuvlar doirasida foydali qazilmalarni tashish va qayta ishlash bilan bog‘liq xarajatlarni soliq bazasidan chegirib tashlash orqali xalqaro amaliyot talablari asosida “Netback” mexanizmini keng qo’llash, soliq to‘lovchilar tomonidan uglevodorodlarni qayta ishlash uchun amalga oshirilgan xarajatlar miqdorini aniqlash, yer osti boyliklarini hisobga olish tizimini takomillashtirish bu boradagi ilmiy tadqiqotlarning ustuvor yo‘nalishlaridan hisoblanadi.

O‘zbekistonda so‘nggi yillarda foydali qazilma konlarini sanoat usulida o‘zlashtirish, geologiya-qidiruv ishlarini rag‘batlantirish orqali yer qa’ridan foydalanuvchilarga qulay ishbilarmonlik muhitini yaratishga alohida e’tibor qaratilmoqda. Bu borada belgilab berilgan “yer osti boyliklarimizni xalqimiz manfaati yo‘lida ishlatish”<sup>2</sup> vazifasini samarali amalga oshirish uchun kam rentabelli konlarni o‘zlashtirishda chet el investitsiyalarini jalg qilish, yer qa’ridan foydalanuvchilar uchun soliq bazasini aniqlashning yangi tartibini belgilash, ilg‘or xorijiy tajribani hisobga olgan holda, yer qa’ridan foydalanganlik uchun soliqni hisoblash tartibini yanada takomillashtirish ishlari olib borilmoqda. Mamlakatda amalga oshirilgan konchilik munosabatlari sohasidagi qonunchilik normalarini yanada soddallashtirish, strategik turdagи foydali qazilmalardan tashqari barcha turdagи foydali qazilmalarni litsenziya o‘rniga ruxsatnoma asosida qazib olish,

<sup>1</sup> Туманова Е.Ю. Правовые основы недропользования. Учебное пособие. Ставрополь 2017. стр. 74.

<sup>2</sup> O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev hududlarni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish, amalga oshirilayotgan bunyodkorlik ishlari hamda avval berilgan topshiriqlar ijrosi bilan tanishish maqsadida 30 aprel kuni Surxondaryo viloyatiga keldi. <https://uza.uz/uz/posts/surkhondarye-tara-iyeti-ududning-tabiiy-boyliklari ва imkon-01-05-2019>

ruxsat berish tartib taomillarining ma'muriy reglamentini ixchamlashtirish, masofadan turib ruxsat olish tizimini joriy qilish tadbirlari bilan bir qatorda foydali qazilmalardan olingan mahsulotlar qiymatini aniqlash tartibini takomillashtirish, xarajatlar miqdorini soliq to'lovchilar va soliq organlari birgalikda aniqlash, bir-biriga o'xshash bo'lgan noruda qurilish materiallari uchun belgilangan soliq stavkasini unifikatsiya qilish, qazib olingan metallarning haqiqatda realizatsiya qilingan hajmi qiymatini soliq bazasi sifatida belgilashga yo'naltirilgan tadqiqot ishlari dolzarb hisoblanadi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 6-oktyabrdagi PF-6319-son "Geologiya-qidiruv ishlarini yanada rag'batlantirish va yer qa'ridan foydalanuvchilarga soliq solish tartibini takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida", 2022-yil 28-yanvardagi PF-60-son "2022-2026-yillarga mo'ljallangan yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida", 2020-yil 3-dekabrdagi PF-6121-son "Resurs soliqlari va mol-mulk solig'ini yanada takomillashtirish to'g'risida"gi farmonlari, 2018-yil 26-dekabrdagi PQ-4078-son "Noruda foydali qazilmalarni o'z ichiga olgan yer qa'ri uchastkalaridan foydalanish samaradorligini oshirish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi qarori, O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2018-yil 10-sentyabrdagi 720-son "Tabiiy resurslardan samarali va oqilona foydalanishni ta'minlashning hamda davlat budjeti daromadlarini oshirishning qo'shimcha chora-tadbirlari to'g'risida", 2021-yil 2-avgustdagagi 483-son "Noruda foydali qazilmalardan samarali foydalanish va ularni hisobga olish tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida", 2022-yil 23-noyabrdagi 666-son "Noruda materiallarni noqonuniy qazib olishda tabiiy obyektlarga yetkazilgan zararni hisoblash tartibini takomillashtirish to'g'risida"gi qarorlari hamda mazkur faoliyatga tegishli boshqa meyoriy-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishda ushbu dissertatsiya tadqiqoti muayyan darajada xizmat qiladi.

**Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishi ustuvor yo'nalishlariga mosligi.** Mazkur dissertatsiya tadqiqoti respublika fan va texnologiyalar rivojlanishining I. "Demokratik va huquqiy jamiyatni ma'naviy-axloqiy va madaniy rivojlantirish, innovatsion iqtisodiyotni shakllantirish" ustuvor yo'nalishiga muvofiq bajarilgan.

**Muammoning o'r ganilganlik darjasи.** Yer osti boyliklarini soliqqa tortishni takomillashtirish orqali budget tushumlari barqarorligini ta'minlashga oid ilmiy-nazariy yondashuvlar tahlili hamda tabiiy resurslardan samarali foydalanish, ularni hisobga olish va soliqqa tortish bilan bog'liq keng qamrovli ilmiy tadqiqotlar S.Appelt, M.Bajgar, Ch.Criscuolo, Fe.Galindo-Rued, S.Sen, X.Volleberg, I.P.Davidov, V.Gorodnikova, I.A.Mayburov, V.Panskov, G.A.Agasandyan, I.I.Gasanov, I.Buzdalov singari xorijlik olimlar tomonidan amalga oshirilgan<sup>3</sup>. O'zbekistonlik olimlardan E.F.Gadoyev, Z.N.Qurbanov,

<sup>3</sup> Silvia Appelt, Matej Bajgar, Chiara Criscuolo, Fernando Galindo-Rueda. «Effectiveness of R&D tax incentives in OECD economies» 14 October 2020; Appelt, S, M Bajgar, C Criscuolo and F Galindo-Rueda (2020), «The effects of R&D tax incentives and their role in the innovation policy mix: Findings from the OECD micro BeRD project, 2016-19, OECD Science, Technology and Industry Policy Papers, No. 92, OECD Publishing, Paris. Brown L, Ayres E. (Edit) The World Watch Reader on Global Environmental Issues. N.Y. - London: W.W. Norton Co., 1998. 358 p.; S.Sen and H.Volleberg. The effectiveness of taxing the carbon content of energyconsumption. Journal of

K.R.Hotamov, D.R.Qurbanov, S.K.Xudoykulov, A.Nazarov, G'.Safarov, X.Bazarov va boshqalar ham respublika sharoitida tabiiy resurslarning milliy iqtisodiyotdagi ahamiyati, ulardan samarali foydalanishda moliya-kredit mexanizmlarining qo'llanilishi, jumladan, ularni soliqqa tortish masalalari bilan bog'liq ilmiy tadqiqot ishlarni olib borganlar<sup>4</sup>.

Jumladan, D.Qurbanov va G'.Safarov, tabiiy resurslarni soliqqa tortishning muammolari bilan bog'liq kengroq tadqiqotlar olib borganlar. Biroq, muallifning fikricha, bugungi kunda respublikada cheklangan tabiiy resurslarni soliqqa tortish borasida bir qator muammolar o'z yechimini kutmoqda. Shuningdek, X.Bazarov tabiatda cheklangan tabiiy boyliklardan muhim strategik xomashyo sifatida foydalanishni tartibga solish va rag'batlantirishda soliq tizimining ta'sirchanligini oshirishga oid ilmiy-nazariy yondashuvlar tahlilini yoritib bergan.

Shu bilan birga yuqorida sanab o'tilgan olimlar tomonidan yer osti boyliklarini soliqqa tortish bazasini takomillashtirish masalalari umumiy holda o'rganilgan bo'lib, bu boradagi ilmiy tadqiqot ishlarni yanada kuchaytirishni resurs soliqlarini qismlarga ajratgan holda o'rganishni taqozo etadi.

**Dissertatsiya mavzusining dissertatsiya bajarilgan oliy ta'lim muassasasi ilmiy-tadqiqot ishlari rejasiga bilan bog'liqligi.** Dissertatsiya ishi O'zbekiston Respublikasi Iqtisodiyot va moliya vazirligi huzuridagi Soliq qo'mitasi huzuridagi Fiskal instituti ilmiy-tadqiqot ishlari rejasiga muvofiq "Raqamlı iqtisodiyot sharoitida soliq ma'muriyatiligi va xalqaro soliqqa tortish mexanizmini takomillashtirish" mavzusidagi ilmiy loyiha doirasida bajarilgan.

**Tadqiqotning maqsadi** yer osti boyliklarini hisobga olish va soliqqa tortishni takomillashtirish orqali budget tushumlari barqarorligini ta'minlashga qaratilgan taklif va tavsiyalar ishlab chiqishdan iborat.

#### **Tadqiqotning vazifalari:**

uglevodorod xom ashysi qayta ishlangan taqdirda soliq bazasini realizatsiya qilingan yakuniy mahsulotlar bahosidan kelib chiqib aniqlash tartibini belgilash bo'yicha takliflar ishlab chiqish;

soliq to'lovchilar tomonidan uglevodorodlarni qayta ishlash uchun amalga oshirilgan xarajatlar miqdorini aniqlash bo'yicha tavsiyalar ishlab chiqish;

foydali qazilmalarni tashishda tovar-transport yukxatlarini majburiy qo'llash

---

Environmental Economics and Management 92 (2018) 74–99. (<https://www.sciencedirect.com/>), Gleick P. H.Global freshwater resources: soft-path solutions for the 21-th century // Science. 302. №5650. 2003. Р. 1524-1527.,  
Давыдов И.П “Формирование модели рентного налогообложения нефтедобычи в России” Городникова В.,  
Гохберг Л. М., Грачева Г. А. [и др.] Зарубежный опыт, тенденции и предпосылки развития в России  
налогового стимулирования НИОКР / Н. // Теория и практика общественного развития. 2012. № 10. – С. 27–  
28; Майбуров И.А. Налоги и налогообложение. Ред. 4-е изд. – М., 2011. - 558 с.; Панков В.Г.  
Налогообложение природных ресурсов: проблемы и пути решения. Журнал Экономика и бизнес, 2018, ст.  
91-104., Агасандян Г.А., Гасанов И.И., Буздалов И. Природная рента как категория рыночной экономики. //  
Вопросы экономики. – Москва, 2002. -№3. – С.24-35.;

<sup>4</sup> Gadoev E.F. va boshq. Bilvosita soliqlar: qo'shilgan qiymat solig'i, aksiz solig'i. – T.: Norma, 2011. – 327 b.;  
Kurbanov D.R. O'zbekistonda suv resurslaridan oqilona va samarali foydalanishni moliyaviy dastaklar yordamida  
rag'batlantirishni takomillashtirish. Monografiya. – T.: Vneshinvestprom, 2021. - 256 b, Safarov G'.A. – TMI  
mustaqil izlanuvchisi, i.f.n. Tabiiy resurs va mol-mulkarni soliqqa tortishni takomillashtirish (Safarov, F. (2019)  
Bazarov X.M. "Tabiiy boyliklardan samarali foydalanishda soliq tizimining ta'sirchanligini oshirish yo'llari"  
Dissertatsiya avtoreferati. – T., 2023. – 13 b.; Bazarov X.M "Tabiiy boyliklardan samarali foydalanishda soliq  
tizimining ta'sirchanligini oshirish yo'llari" Monografiya. – T.:

orqali yer osti boyliklarini hisobga olish tizimini takomillashtirish;

konchilik munosabatlardagi vakolatli organlarning yer qa'ridan foydalanish sohasidagi ma'lumotlarini soliq organlari ma'lumotlar bazasiga integratsiya qilish hisobiga axborot bazasini kengaytirish;

qurilish va sanoat ishlab chiqarishda noruda foydali qazilmalarning sarfi hisobini yuritish maqsadida davriy hisobotlarni ishlab chiqish;

bir turga mansub bo'lgan foydali qazilmalar uchun soliq stavkasini unifikatsiya qilish orqali soliq ma'murchilagini soddalashtirish;

metallar bo'yicha soliq bazasini ularning realizatsiya qilingan hajmidan kelib chiqib belgilash tartibini ishlab chiqish hisobiga soliqlarni hisoblashning adolatlilik tamoyilini ro'yobga chiqarish;

konlardan qazib olingan haqiqiy hajmni aniqlash va soliq bazasini kengaytirish maqsadida marksheyderlarning ishtirokini ta'minlash;

konchilik munosabatlari sohasida vakolatli organlarga ko'maklashish maqsadida marksheyderlik xizmatini tashkil qilish yuzasidan ilmiy va amaliy takliflarni ishlab chiqish.

**Tadqiqotning obyekti** bo'lib O'zbekistonda yer qa'ridan foydalanganlik uchun soliq to'lovchi korxonalar faoliyatini hisoblanadi.

**Tadqiqotning predmetini** yer osti boyliklarini soliqqa tortish orqali budget tushumlari barqarorligini ta'minlash jarayonida vujudga keladigan iqtisodiy munosabatlar tashkil etadi.

**Tadqiqotning usullari.** Tadqiqot ishida tahlilning mantiqiy fikrlash, taqqoslama, ilmiy abstraksiyalash, kuzatish, umumlashtirish, guruhlashtirish usullaridan foydalananilgan.

#### **Tadqiqotning ilmiy yangiliklari** quyidagilardan iborat:

qazib olingan tabiiy gaz, neft va gaz kondensatini qayta ishlashni amalga oshirgan hollarda soliq bazasi ushbu foydali qazilmalardan olingan mahsulotlarni realizatsiya qilish bahosidan kelib chiqqan, ularni keyinchalik qayta ishlash va transportda tashish uchun soliq to'lovchi tomonidan qilingan xarajatlar chegirib tashlangan holda aniqlash taklifi asoslangan;

soliq bazasini aniqlashda soliq to'lovchilar tomonidan amalga oshirilgan xarajatlar miqdorini soliq to'lovchilar va soliq organlari birgalikda aniqlashi tartibini qo'llash orqali soliq to'lovchilar tomonidan xarajatlarni asossiz ravishda oshirib ko'rsatish holatlarining oldini olish asoslangan;

bir-biriga o'xshash bo'lgan noruda qurilish materiallari uchun belgilangan soliq stavkasini unifikatsiya qilish orqali bir guruhga jamlash hamda yagona stavkada soliq hisoblash asosida yer osti boyliklaridan samarali foydalanishda soliq tizimining ta'sirchanligini oshirish taklif etilgan;

qazib olingan (ajratib olingan) qora, qimmatbaho, rangli va radioaktiv metallar, noyob elementlarning va noyob yer elementlarining soliq bazasini belgilashda ularning haqiqatda realizatsiya qilingan hajmi qiymatidan kelib chiqish tartibini joriy etish orqali yer osti boyliklarini soliqqa tortish takomillashtirilgan.

#### **Tadqiqotning amaliy natijalari** quyidagilardan iborat:

noruda qurilish materiallari hisobini yuritish maqsadida tovar-transport yukxatlarini elektron tarzda majburiy rasmiylashtirish tizimini yaratish taklifi

asoslangan;

Davlat geologiya va mineral resurslari qo‘mitasi hamda Davlat ekologiya qo‘mitasi tomonidan noruda foydali qazilmalarni qazib oluvchi va qayta ishlovchi tadbirkorlik subyektlariga berilgan ijobiy xulosalarni soliq organlari ma’lumotlar bazasiga integratsiya qilish zarurligi asoslangan;

noruda foydali qazilmalar harakatini nazorat qilish ularning hisobini yuritish maqsadida qurilish tashkilotlari va qurilish materiallarini ishlab chiqaruvchilar uchun ma’lumotnomma shakli joriy qilingan;

yer qa’ridan foydalanuvchilar tomonidan foydali qazilmalar zaxirasi harakati to‘g‘risidagi hisobotlarni soliq to‘lovchilarning shaxsiy kabinetlari orqali soliq organlariga taqdim etish taklifi asoslangan;

yer qa’ridan foydalanuvchilar tomonidan haqiqatda qazib olingan (ajratib olingan) foydali qazilmalar hajmining marksheyderlik xulosasiga muvofiqligi yuzasidan o‘tkaziladigan monitoring tadbirlarida vakolatli organlar qamrovini kengaytirish taklifi ishlab chiqilgan.

**Tadqiqot natijalarining ishonchliligi** ilmiy asoslangan xulosa va takliflarni ishlab chiqishda O‘zbekiston Respublikasi Iqtisodiyot va moliya vazirligi, Tog‘-kon sanoati va geologiya vazirligi, Statistika agentligi, Iqtisodiyot va moliya vazirligi huzuridagi Soliq qo‘mitasi, Kadastr agentligi, Energetika vazirligi hamda O‘zbekneftgaz AJning rasmiy ma’lumotlaridan foydalanilganligi, ishda qo‘llanilgan yondashuv va usullarning maqsadga muvofiqligi hamda ilmiy asoslanganligi, keltirilgan xulosa, taklif va tavsiyalarning O‘zbekiston Respublikasi Davlat soliq qo‘mitasi tomonidan amaliyatga joriy etilganligi bilan belgilanadi.

**Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati.** Tadqiqot natijalarining ilmiy ahamiyati dissertatsiya ishida ilgari surilgan nazariy-uslubiy tavsifdagi xulosa va takliflardan yer osti boyliklarini hisobga olish va yer qa’ridan foydalanganlik uchun soliqlarni undirish mexanizmlarini takomillashtirish orqali budjet tushumlari barqarorligini ta’minalash va maxsus ilmiy tadqiqotlarning nazariy-uslubiy asoslarini boyitish hamda tadqiqotlarning ilmiy apparatini takomillashtirishda foydalanish mumkinligi bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining amaliy ahamiyati dissertatsiya ishida ilgari surilgan amaliy tavsifdagi xulosa va takliflardan O‘zbekistonda yer osti boyliklarini hisobga olish va bu orqali yer qa’ridan foydalanganlik uchun soliqni undirish mexanizmlarini takomillashtirish, soliq bazasini kengaytirishda marksheyderlik xizmatining rolini oshirish bilan bog‘liq mavjud iqtisodiy muammolarni aniqlash, ularning yechimlari bilan bog‘liq ilmiy-amaliy tavsiyalarni ishlab chiqish, yer osti boyliklarini hisobga olish va soliqqa tortishga oid qonunchilikni takomillashtirish, tegishli me’yoriy hujjatlarni ishlab chiqish va maxsus ilmiy tadqiqotlarni amalgaloshirishda foydalanish mumkinligi bilan izohlanadi.

**Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi.** Yer osti boyliklarini soliqqa tortishni takomillashtirish orqali budjet tushumlari barqarorligini ta’minalash bo‘yicha tadqiqot natijalari davomida ishlab chiqilgan uslubiy taklif va tavsiyalar asosida:

qazib olingan tabiiy gaz, neft va gaz kondensatini qayta ishlashni amalga

oshirgan hollarda soliq bazasi ushbu foydali qazilmalardan olingen mahsulotlarni realizatsiya qilish bahosidan kelib chiqqan, ularni keyinchalik qayta ishslash va transportda tashish uchun soliq to‘lovchi tomonidan qilingan xarajatlar chegirib tashlangan holda aniqlash taklifi O‘zbekiston Respublikasining 2022-yil 30-dekabrdagi O‘RQ-812-sonli Qonunida inobatga olingen (O‘zbekiston Respublikasi Iqtisodiyot va moliya vazirligi huzuridagi Soliq qo‘mitasining 2023-yil 7-fevraldagagi 18/1-14253-sonli ma’lumotnomasi). Mazkur ilmiy taklifning amaliyatga joriy etilishi natijasida soliq to‘lovchilar tomonidan amalga oshirilgan xarajatlarni soliq bazasidan chegirib tashlash amaliyoti joriy qilinib, soliqlari hisoblashningadolatlilik tamoyillari amal qilishi uchun imkon yaratilgan;

soliq bazasini aniqlashda soliq to‘lovchilar tomonidan amalga oshirilgan xarajatlar miqdorini soliq to‘lovchilar va soliq organlari birgalikda aniqlashi tartibini qo‘llash orqali soliq to‘lovchilar tomonidan xarajatlarni asossiz ravishda oshirib ko‘rsatish holatlarining oldini olish taklifi O‘zbekiston Respublikasi Iqtisodiyot va moliya vazirligi huzuridagi Soliq qo‘mitasi tomonidan foydalanilgan (O‘zbekiston Respublikasi Iqtisodiyot va moliya vazirligi huzuridagi Soliq qo‘mitasining 2023-yil 7-fevraldagagi 18/1-14253-sonli ma’lumotnomasi). Mazkur ilmiy taklifning amaliyatga joriy etilishi natijasida soliq nazorati tadbirlarini amalga oshirmagan holda soliq to‘lovchilar tomonidan soliq bazasini kamaytirish maqsadida xarajatlarni asossiz ravishda oshirib ko‘rsatish holatlarini oldini olish imkoni yaratilgan;

bir-biriga o‘xhash bo‘lgan noruda qurilish materiallari uchun belgilangan soliq stavkasini unifikatsiya qilish orqali bir guruhga jamlash hamda yagona stavkada soliq hisoblash asosida yer osti boyliklaridan samarali foydalanishda soliq tizimining ta’sirchanligini oshirish taklifi Soliq kodeksining 452-moddasida inobatga olingen (O‘zbekiston Respublikasi Davlat soliq qo‘mitasining 2022-yil 17-fevraldagagi 18/1-15889-sonli ma’lumotnomasi). Mazkur ilmiy taklifning amaliyatga joriy etilishi natijasida foydali qazilmalarni hisobga olish, soliqqa tortish bazasini yangi mexanizmlar asosida hisoblash orqali yer osti boyliklaridan samarali foydalanishda soliq tizimining ta’sirchanligini oshirish imkoni yaratilgan;

qazib olingen (ajratib olingen) qora, qimmatbaho, rangli va radioaktiv metallar, noyob elementlarning va noyob yer elementlarining soliq bazasini belgilashda ularning haqiqatda realizatsiya qilingan hajmi qiymatidan kelib chiqish tartibini joriy etish orqali yer osti boyliklarini soliqqa tortishni takomillashtirish taklifi O‘zbekiston Respublikasining 2022-yil 30-dekabrdagi O‘RQ-812-sonli Qonunida inobatga olingen (O‘zbekiston Respublikasi Iqtisodiyot va moliya vazirligi huzuridagi Soliq qo‘mitasining 2023-yil 7-fevraldagagi 18/1-14253-sonli ma’lumotnomasi). Mazkur ilmiy taklifning amaliyatga joriy etilishi natijasida foydali qazilmalarni haqiqatda sotilgan hajmining qiymatidan kelib chiqib soliq hisoblash amaliyotini joriy qilish imkoni yaratilgan.

**Tadqiqot natijalarining aprobatsiyasi.** Mazkur tadqiqot natijalari 6 ta ilmiy-amaliy anjumanda, jumladan, 4 ta respublika va 2 ta xalqaro ilmiy-amaliy anjumanida ma’ruza ko‘rinishida bayon etilgan va ma’qullangan.

**Tadqiqot natijalarining e'lon qilinganligi.** Dissertatsiya mavzusi natijalari bo'yicha jami 8 ta ilmiy ish, shu jumladan, Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasining doktorlik dissertatsiyalari asosiy ilmiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan ilmiy nashrlarda 4 ta maqola, jumladan 3 ta respublika va 1 tasi xorijiy jurnallarda nashr etilgan.

**Dissertatsiyaning hajmi va tuzilishi.** Dissertatsiya tarkibi kirish, 3 ta bob, xulosa, foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati va ilovalardan iborat. Dissertatsiyaning umumiyligi hajmi 134 betni tashkil etadi.

## **DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI**

Dissertatsiyaning kirish qismida ilmiy tadqiqotning dolzarbliji va zarurati asoslangan, tadqiqotning maqsadi va vazifalari, obyekti va predmeti tavsiflangan, respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo'naliishlariga mosligi ko'rsatilgan, ilmiy yangiligi va amaliy natijalari bayon qilinib, olingan natijalarning ilmiy va amaliy ahamiyati yoritib berilgan, tadqiqot natijalarini amaliyotga joriy etish, nashr etilgan ishlar va dissertatsiya tuzilishi bo'yicha ma'lumotlar keltirilgan.

Dissertatsiyaning "**Yer osti boyliklarini hisobga olish va soliqqa tortishning nazariy huquqiy asoslari**" deb nomlangan birinchi bobida yer osti boyliklarining huquqiy holati o'raniqgan bo'lib, yer osti boyliklarini geologik jihatdan o'rghanishdan tortib, ularni qazib olish, muhofaza qilish, mineral xom ashyo realizatsiya qilingan taqdirda soliqlarni to'lash bilan bog'liq munosabatlar, yer qa'ridan foydalanganlik uchun soliqning budget daromadlarini shakllantirishdagi o'rni yoritib o'tilgan.

Dissertatsiya ishi davomida yer osti boyliklariga nisbatan soliq stavkalarini pasaytirish va soliq bazasini aniqlashning yangi tartiblarini joriy qilish orqali soliq bazasini kengaytirish hamda budget tushumlari barqarorligini ta'minlash jarayonini yoritib berish tanlab olingan va bu mavzuimizning dolzarbliji belgilab berilgan.

Bizning fikrimizcha so'ngi yillarda resurslarni tejashda soliq stavkalari indeksatsiya qilinib kelingan bo'lsada bundan ko'zlangan asosiy maqsad budget tushumlarini ta'minlash emas balki, resurslardan samarali foydalanishga undashdan iborat. Bir vaqtning o'zida foydali qazilmalarining turlari bo'yicha zaxira va resurslarni 20 turgacha ko'paytirish hamda rivojlantirish dasturlariga 2022-yilda 1 000,0 mlrd.so'm, 2023-yilda 2 127,5 mlrd.so'm hamda 2024-yilda 2 446,6 mlrd.so'm mablag' ajratish rejalashtirigan.<sup>5</sup>

Fikrimizcha, strategik turdag'i foydali qazilmalarning qazib olish hajmini oshirish dunyo hamjamiyatida mamlakatimizning oltin valyuta zaxira fondini mustahkamlashga hamda xalqimizning farovonligini ta'minlashga xizmat qilishi lozim. So'nggi yillarda ayrim iqtisodiy ko'rsatkichlarning yalpi ichki mahsulotdagi ulushini tahlil qilish orqali uning dolzarbligini asoslashga bo'lgan yondashuvlarni ko'rish mumkin.

<sup>5</sup> O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 30-dekabrdagi "O'zbekiston Respublikasining "2022-yil uchun O'zbekiston Respublikasining davlat budgeti to'g'risida"gi qonuni ijrosini ta'minlash chora-tadbirlari to'g'risida" PQ-73-son qarori.

Jumladan, yer qa'ridan foydalanuvchilar tomonidan yaratilgan qo'shilgan qiymatning yalpi ichki mahsulotdagi ulushi yuqori bo'lganligi kabi, ushbu tarmoq korxonalari tomonidan to'langan yer qa'ridan foydalanganlik uchun soliq tushumlari ham salmoqli o'rinni egallaydi.


### 1-jadval

#### **Yer qa'ridan foydalanganlik uchun soliq tushumining 2017-2022-yillar davomida YAIMdagi o'rni tahlili<sup>6</sup> (mlrd.so'm)**

Tayyor mahsulot	O'lchov birligi	2017 yil	2018 yil	2019 yil	2020 yil	2021 yil	2022 yil
YAIM	mlrd.so'm	249 100	407 510	511 800	580 200	717 918	888 300
Hisoblangan soliq	mlrd.so'm	NKMK va OKMK AJ ma'lumotlari mavjud emas		12 471,7	15 528,8	14 753,1	14 403,5
Tushum	mlrd.so'm	2 504,7	4 283,8	14 692,9	16 429,6	14 940,7	14 586,6
YAIMdagi ulushi (tushum bo'yicha)	%	1,0	1,1	2,9	2,8	2,1	1,9

1-jadval ma'lumotlaridan ma'lum bo'lishicha, yer qa'ridan foydalanganlik uchun soliq tushumlarining YAIMdagi eng yuqori ulushi 2019-yilda kuzatilgan bo'lib, 2,9 foizni tashkil qilgan. 2020-yilga kelib YAIMning o'sish sur'ati 113 foizni, soliq tushumining o'sish sur'ati 112 foizni tashkil qilgan bo'lsada, soliq tushumlarining YAIMdagi ulushi 0,1 foizga kamaygan.

Shuningdek, ushbu soliq turi budjet daromadlarini shakllantirishda salmoqli o'rinni egallab turibgina qolmay balki, mahalliy budjet daromadlarini shakllantirishda ham o'zining munosib hissasini qo'shib kelmoqda. Tahlil davomida ma'lum bo'lishicha o'tgan davr davomida soliq tushumlarida 2020-yildan so'ng kamayish kuzatilib, 2022-yilga kelib, budjet daromadlarining o'rtacha 10 foizi ushbu soliq turiga to'g'ri kelganligini ko'rishimiz mumkin.



#### **1-rasm. Respublika bo'yicha 2012-2022-yillarda yer qa'ridan foydalanlanlik uchun soliq tushumlari dinamikasi<sup>7</sup>(mlrd.so'm)**

<sup>6</sup> Bazarov X.M. "Mamlakatimizda investitsiyalarni jalg qilish va yer qa'ridan foydalanuvchilarga soliq solish taribini takomillashtirish yo'llari" Iqtisodiyot va innovatsion texnologiyalar ilmiy elektron jurnal. №6-son. Noyabr-dekabr, 2021-yil 385-bet

<sup>7</sup> Davlat soliq qo'mitasi ma'lumotlari asosida muallifning hisb-kitobi

1-rasm ma'lumotlari bo'yicha mazkur soliq tushumlari respublika bo'yicha alohida o'ringa ega ekanligi yaqqol ko'rinish turibdi. O'tgan 2022-yilda 14,4 trln.so'm tushum ta'minlangan bo'lsa, ushbu tushumlar 2019-yilgi tushumga yaqin ekanligini ko'rish mumkin.

Mazkur soliq turining asosiy tushum manbai qimmatbaho va rangli metallarni realizatsiya qilishdan olingan daromadlar hisobiga shakllanadi. Mazkur mahsulotlar mamlakatimizdagi yirik soliq to'lovchilardan biri bo'lgan Navoiy kon metallurgiya kombinati va Olmaliq kon-metallurgiya kombinati tomonidan qazib olinadi (2-rasm).



**2-rasm. Navoiy kon metallurgiya kombinati tomonidan qazib olingan hamda kelgusi yillarda qazish rejajashtirilgan qimmatbaho metall to'g'risida ma'lumot<sup>8</sup>**

Ushbu 2-rasm ma'lumotlari bo'yicha Kombinat tomonidan 2016-yilda 2,339 ming tr.unsiya qimmatbaho metall qazib olingan bo'lib, bu ko'rsatkich o'tgan 2022-yilda 2,669 ming tr.unsiyani tashkil qildi. Bir so'z bilan aytadigan bo'lsak, qazib olish hajmi 2016-yilga nisbatan 10,2 ming tr.unsiyaga ortgan bo'lib, 2022-yil davomida Kombinat tomonidan to'lab berilgan jami soliqlar budget daromadlarining 23 foizni tashkil qilgan.

Dissertatsianing ikkinchi bobida "**Yer osti boyliklarini hisobga olish va soliqqa tortishning budget daromadlarini shakllantirishdagi o'rni tahlili**" tadqiq qilinishi belgilab olingan bo'lib, asosiy e'tibor tabiiy gaz, neft va gaz kondensatini hamda qimmatbaho, rangli, radioaktiv metallarning asosiy turlarini soliqqa tortishning yangi tartibi, soliq bazasini aniqlashda soliq to'lovchilar tomonidan amalga oshirilgan dastlabki ishlov berish, qayta ishslash, transportda tashish, eritish, bilan bog'liq xarajatlarni chegirish, ushbu xarajatlar miqdorini asossiz ravishda oshirilishini oldini olish, mahalliy budget daromadlarini shakllantirish hamda yer qa'ridan foydalanganlik uchun soliq tushumlari tarkibida noruda qurilish materiallarining ulushi tahlil qilingan. Shuningdek soliq bazasini kengaytirishda marksheyderlik xizmatini rolini oshirish masalalari yoritib o'tilgan.

Barchamizga sir emaski bugungi kunda neft quduqlarining asosiy qismi davlat ulushiga ega korxonalar va mahsulot taqsimotiga oid bitim bo'yicha faoliyat

<sup>8</sup> Navoiy kon-metallurgiya kombinatining ma'lumotlariga asosan muallifning hisob-kitobi

yuritayotgan kompaniyalar ixtiyorida bo‘lib, davlat budgetining daromad qismi shakllanishida tarmoq korxonalari yetakchi o‘rinni egallaydi.

Ma’lumot o‘rnida aytadigan bo‘lsak, yer qa’ridan foydalanganlik uchun soliq bo‘yicha bir yilda 12 trln.so‘mdan ortiq mablag‘ tushsa, ushbu tarmoq korxonalari mazkur tushumning 25 – 30 foizini ta’minlaydi.

## 2-jadval

### **Uglevodorod xom ashyosi hisobidan yer qa’ridan foydalanganlik uchun soliq tushumlarini shakllanishi bo‘yicha ma’lumot<sup>9</sup> (mlrd.so‘m)**

Asosiy yer osti boyliklari	2015-16 y.	2017-y.	2018-y.	2019-y.	2020-y.	2021-y.	2022 y
Neft	Yopiq	35,8	90,1	148,3	203,9	897,3	1 059,8
Tabiiy gaz	Yopiq	568,4	678,7	1 504,6	1 830,6	2 349,0	2 632,6
Gaz kondensati	Yopiq	40,5	63,2	99,4	198,0	575,1	613,8

2-jadval ma’lumotlari tahliliga ko‘ra, so‘ngi yillarda gaz kondensati bo‘yicha soliq tushumlarining barqarorligi ta’minlanib, 2017-yilga nisbatan neft bo‘yicha 29 baravarga, tabiiy gaz bo‘yicha 4,6 baravarga, gaz kondensati bo‘yicha 15 baravarga o‘sish sur’ati qayd etilgan.

Mustaqillik yillarida tarmoqqa xorijiy investorlarning qiziqishlari ortib, 2004-yildan Rossiyaning Lukoyl neft kompaniyasi neft gaz tarmog‘i bozoriga kirib kela boshlagan hamda “O‘zbekneftgaz” Milliy xolding kompaniyasidan iborat investorlar konsorsiumi imzolangan.

Mazkur shartnoma doirasida Qandim konlari guruhi uchastkasi, Xauzak, Shodi uchastkalari va Qo‘ng‘irot uchastkalari bo‘yicha 35 yil muddatga (megaloysi) mahsulotni taqsimlash Kelishuvi (SRP) imzolandi<sup>10</sup>.

O‘rganishlardan ma’lum bo‘lshicha, 2022-yil yakunlariga ko‘ra, O‘zbekneftgaz AJ ixtiyorida 1 311 ta faol neft gaz quduq (skvajina)lari mavjud bo‘lib, ular asosan ichki bozor, ulgurji iste’molchilar, Sho‘rtan gaz kimyo kompleksi, “Uzbekistan GTL” QK SP “Uz-Kor Gas Chemical” MCHJ va Issiqlik elektr stansiyalariga hukumat tomonidan tasdiqlangan narx asosida sotuv amalga oshiriladi. Bu qiymat tabiiy gazning haqiqiy tannarxidan ham past bo‘lib, yillar davomida O‘zbekneftgaz AJ, Uztransgaz AJlarning zararlari davlat subsidiyasini hisobidan qoplab berilgan. Xususan, 2023-yilda budjet bo‘yicha ichki bozorda tabiiy gazni ulgurji sotib olish va sotish bo‘yicha ixtisoslashtirilgan kompaniya zararlarini qoplash uchun 14,2 trln.so‘m xarajat yo‘naltiriladi<sup>11</sup>. Yoki birinchi darajali budjet xarajatlarining 7 foizi ushbu korxonaga sarflanadi. Ushbu zararni qoplash uchun 2022-yilda 9,2 trln.so‘m mablag‘ birinchi darajali budjet

<sup>9</sup> Bazarov X.M. “Mamlakatimizda investitsiyalarni jalb qilish va yer qa’ridan foydalananuvchilarga soliq solish tartibini takomillashtirish yo‘llari” Iqtisodiyot va innovatsion texnologiyalar ilmiy elektron jurnal. №6-son. Noyabr-dekabr, 2021-yil.

<sup>10</sup> <https://www.ung.uz/about/history>

<sup>11</sup> O‘zbekiston Respublikasining “2023-yil uchun O‘zbekiston Respublikasining Davlat budjeti to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasining Qonuni, 30.12.2022-yildagi O‘RQ-813-son.

xarajatlaridan ajratilgan<sup>12</sup>.

Tabiiy gaz, neft va gaz kondensati bo'yicha soliq bazasini aniqlashning yangi tartibi belgilangandan so'ng, o'tgan davr davomida tarmoq korxonalari tomonidan qazib olish hajmlari kamaygan bo'lsada, soliq tushumlarining barqarorligi ta'minlandi.

### 3-jadval

#### **Uglevodorod xomashyosi bo'yicha soliq bazasini aniqlashning yangi tartibi bo'yicha hisoblangan soliq to'g'risida ma'lumot<sup>13</sup>(mlrd.so'm)**

Ko'rsatkich nomi/soliq davri	Qazib olish hajmi (mln.kub)	Sotuv hajmi	Chegirilgan xarajat miqdori	shu jumladan			Soliq bazasi	Soliq stavka	Hisoblangan soliq
				dastlabki ishlov berish	qayta ishlash	tashish			
2021-yil (eski tartib)	50 384,8	19 107,5	0,0	0,0	0,0	0,0	19 107,5	20,0	3 821,5
2022-yil (yangi tartib)	47 842,9	44 588,9	1 526,9	412,3	668,8	445,9	43 062,0	10,0	4 306,2
<b>Farqi</b>	<b>-2 541,9</b>	<b>25 481,4</b>	<b>1 526,9</b>	<b>412,3</b>	<b>668,8</b>	<b>445,9</b>	<b>23 954,5</b>	<b>-10,0</b>	<b>484,7</b>

3-jadval ma'lumotlarini tahlil qiladigan bo'lsak, o'tgan 2021-yil davomida tarmoq korxonalari tomonidan o'rtacha hisobda 50,4 mlrd.kub metr tabiiy gaz qazib olingan hamda 3,8 trln.so'm yer qa'ridan foydalanganlik uchun soliq hisoblangan bo'lsa, 2022-yilga kelib soliq tushumlari miqdori 484,7 mlrd.so'mga ortganligini ko'rishimiz mumkin.

### 4-jadval

#### **Neft va gaz kondensatini qayta ishlash natijasida olinishi mumkin bo'lgan tayyor mahsulotlar ro'yxati<sup>14</sup>**

Tayyor mahsulot nomi	Neft homashyosi (100 foizdan)	Gaz kondensati (100 foizdan)
Avtobenzin Ai 80	21	51
Avtobenzin Ai 91, Ai 92, Ai 92	1,5	4,4
Avtobenzin Ai 95	1,0	3,6
Dizel yoqilg'isi	21	23
Aviakerosin	11	11
Mazut	7	4

2022-yildan boshlab yangi tartib asosida neft mahsulotlari bo'yicha qayta ishlash natijasida olingan tayyor mahsulotlarni realizatsiya qilish bahosidan kelib chiqib soliq bazasini aniqlash tartibi belgilandi. Ushbu davrga qadar amalda

<sup>12</sup> O'zbekiston Respublikasining "2022-yil uchun O'zbekiston Respublikasining Davlat budjeti to'g'risida"gi O'zbekiston Respublikasining Qonuni, 30.12.2021-yildagi O'RQ-742-son.


<sup>13</sup> Soliq qo'mitasi ma'lumotlari asosida muallifning hisob-kitobi.

<sup>14</sup>O'zbekneftgaz AJning ma'lumotlari asosida muallif tomonidan ishlab chiqilgan.

bo‘lgan tartibda suyuq uglevodorodlar (neft yoki kondensat) bo‘yicha soliq bazasini aniqlashda doval asosda qayta ishslash tartibi bo‘yicha soliq bazasi aniqlangan. Xususan, korxonalar suyuq uglevodorodlarni o‘zlarining texnologiyalari asosida qayta ishlab yoki boshqa korxonalarga qaytarish sharti bilan qayta ishslashga berib yuqori likvidli tayyor mahsulot olgan bo‘lsada, soliq bazasini xomashyoning tannarxidan kelib chiqib aniqlagan.

Mazkur jarayonda yer qa'ridan foydalanuvchi tomonidan amalga oshirilgan xarajatlar miqdorining haqiqatdagi qiymatini aniqlash orqali soliq bazasini nazorat qilish imkoniyati mavjud bo'lmagan.

Yangi tartibda soliq bazasini aniqlash uchun yuqori likvidli tovar bo'yicha narxning yetkazib berish zanjirining aniq nuqtasida tashish va qayta ishslash xarajatlarini soliq bazasidan chegirgan holda mahsulotning yakuniy qiymatidan "teskari hisoblash" asosida aniqlash belgilandi. Shuningdek, mazkur jarayonda yer qa'ridan foydalanuvchi tomonidan amalga oshirilgan xarajatlar miqdori soliq organlari bilan birgalikda aniqlanadigan bo'ldi. Soliq bazasini aniqlashning yangi tartibi asosan tabiiy gaz, neft, gaz kondensati, qimmatbaho, rangli, radiaktiv metallar uchun amal qilib, quyidagi sxema o'z aksini topgan.



### **3-rasm. Foydali qazilmalarни qazib olish, qayta ishslash va realizatsiya qilish jarayonining sxeamtik ko‘rinishi<sup>15</sup>**

3-rasm ma'lumotlari bo'yicha fikr yuritadigan bo'lsak, agar qazib olish, qayta ishslash va yakuniy realizatsiya qilish segmenti aynan bir turdag'i yer qa'ridan foydalanuvchi tomonidan amalga oshirilsa, u holda soliq bazasi "netback" usulida aniqlanadi.

Agar qazib olish segmenti va yakuniy realizatsiya qilish segmenti aynan bir

<sup>15</sup> Xalqaro valyuta jamg‘armasi tomonidan “Yer qa’ridan foydalanuvchilarga soliq solish” masalalarida tashkil etilgan missiya yakuni bo‘yicha tuzilgan Texnik hisobotidan. Toshkent-2023 y. Aprel.

subyekt tomonidan qayta ishslash shartnoma asosida boshqa yuridik shaxs tomonidan amalga oshirilsa, mazkur holatda ham soliq bazasi “netback” usulida aniqlanadi

Shuningdek, agar qazib olish segmenti yakuni bo‘yicha realizatsiya amalga oshirilsa, u holda amalda bo‘lgan o‘rtacha bahodan kelib chiqib soliq bazasi aniqlanadi.

Barchamizga sir emaski, budget to‘g‘risidagi qonunchilik normalari bo‘yicha qurilish materiallari bo‘yicha yer qa’ridan foydalanganlik uchun soliq Qoraqalpog‘iston Respublikasi budgeti, viloyatlar va Toshkent shahar mahalliy budgetlari, tumanlar va shaharlar budgetlari daromadlarini shakllantirishning asosiy manbasi hisoblanadi.

### **5-jadval**

#### **Noruda qurilish materiallari bo‘yicha yer qa’ridan foydalanganlik uchun soliq tushumlari to‘g‘risida ma’lumot<sup>16</sup>(mlrd.so‘m)**

<b>Soliq turi</b>	<b>2019-yil</b>	<b>2020-yil</b>	<b>2021-yil</b>	<b>2022-yil</b>
Yer qa’ridan foydalanganlik uchun soliq	14 693	16 565	15 811	14 403
Shundan, noruda qurilish materiallari bo‘yicha yer qa’ridan foydalanganlik uchun soliq tushumlari	175	635,1	864,7	546,3
Ulushi	1,2	3,8	5,5	3,8

5-jadval ma’lumotlaridan ko‘rinib turibdiku, noruda qurilish materiallari bo‘yicha yer qa’ridan foydalanganlik uchun soliq tushumlari yer qa’ridan foydalanganlik uchun soliq tushumlari tarkibida o‘rta hisobda 3-5 foizni tashkil qilmoqda. Mazkur tushumlarning miqdorishni oshirishda soliq bazasini kengaytirish asosiy maqsad qilib olingan bo‘lib, bu maqsadga erishishda asosan marksheyderlik xizmatining roli yetakchi bo‘lishi lozim. Ushbu xizmat dala sharoitida marksheyder mutaxassislari ishtirokida karyerdan qazib olingan foydali qazilmaning haqiqiy hajmi o‘lchovdan o‘tkazish orqali amalga oshiriladi.

Yer qa’ridan foydalanish sohasida soliqlar to‘lashdan bo‘yin tov lashning turli sxemalari yaratilib, yer qa’ridan foydalanuvchilar faoliyati yetarli darajada nazorat qilinmayapti bu bo‘yicha berilgan vakolatlardan samarasiz foydalanilmoxda.

Hukumat tomonidan belgilab berilgan tartibga ko‘ra, O‘zbekiston Respublikasi Davlat geologiya va mineral resurslar qo‘mitasi huzuridagi Kon-geologiya faoliyatini nazorat qilish inspeksiyasi hamda Davlat soliq qo‘mitasi yer qa’ridan foydalanuvchilar tomonidan haqiqatda qazib olingan (ajratib olingan) foydali qazilmalar hajmining marksheyderlik xulosasiga muvofiqligi yuzasidan monitoring o‘tkazish huquqi berilgan.

Biroq, ushbu tuzilmalarning tarkibida marksheyderlik xizmati yo‘lga qo‘yilmagan bo‘lib, rahbariyat topshirig‘i va boshqa sabablar bilan marksheyderlik xizmati jalb qilinmoqda.

<sup>16</sup> Davlat soliq qo‘mitasi ma’lumotlari asosida muallifning hisob-kitobi

## 6-jadval

### Foydali qazilmaning haqiqiy hajmini aniqlash bo‘yicha marksheyderlik xizmatini jalb qilgan holda o‘tkazilgan montoring to‘g‘risida ma’lumot<sup>17</sup>

Hudud nomi	O‘rganilgan korxonalar soni			Hisobotlarda qazilma hajmini kamaytirib ko‘rsatgan					
	2019 yil	2020 yil	2021 yil	korxona soni			qazilma hajmi (ming m kub)		
